



**"TENGE BANK" ATBDA TA'MINOTGA QABUL QILINGAN GAROV MOL-MULKINI
BOSQICHMA-BOSQICH OZOD ETISH TARTIBI**

1-bob. Umumiy qoidalar

1. "Tenge Bank" ATBda ta'minotga qabul qilingan garov mol-mulkini bosqichma-bosqich ozod etish tartibi (keyingi o'rinlarda – Tartib) O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi, shu jumladan Bankning ichki qoidalariga muvofiq ishlab chiqilgan bo'lib, kreditlar bo'yicha ta'minot sifatida qabul qilingan garov mol-mulkini kredit bo'yicha asosiy qarz qoldig'iga mutanosib ravishda bosqichma-bosqich ozod etish yoki garov mol-mulkini almashtirish tartibini belgilaydi.

2. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga Tartib qoidalarini o'zgartirishni talab qiladigan o'zgartirishlar kiritilgan taqdirda, O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlaridagi o'zgartirishlar Tartib O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga muvofiqlashtiriladigan vaqtga qadar ustuvor kuchga ega bo'ladi.

3. Tartib Bankning barcha tarkibiy bo'linmalari va xodimlari tomonidan ularga yuklatilgan vazifalar va funksiyalarni bajarishda bajarilishi majburiy hisoblanadi.

2-bob. Asosiy tushunchalar

4. Ushbu Tartibda qo'llaniladigan asosiy tushunchalar:

1) *Bank* – "Tenge Bank" ATB;

2) *Bankning ichki qoidalari (BIQ)* – Bankning vakolatli organi yoki mansabdor shaxslari tomonidan belgilangan tartibda tasdiqlangan, qonunchilik doirasida bank operatsiyalarini amalga oshirishning batafsil va aniq tartibini belgilaydigan hamda Bank rahbarlari va xodimlari uchun bajarilishi majburiy bo'lgan qo'llanma vazifasini bajaradigan, tegishli tarzda rasmiylashtirilgan yozma hujjatlar;

3) *Mijoz* – bankka kredit xizmatlarini olish uchun ariza bilan murojaat qilgan yuridik yoki jismoniy shaxs yoxud yuridik shaxs maqomiga ega bo'lmagan jismoniy shaxs;

4) *Garov/ipoteka shartnomasi* – qarz oluvchining o'z majburiyatini to'liq bajarishini ta'minlash maqsadida tomonlar tomonidan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda tuziladigan kelishuv;

5) *Qarz oluvchi* – mulkchilik shaklidan qat'i nazar, kredit majburiyatlariga ega bo'lgan yuridik shaxslar, yuridik shaxs tashkil etmagan holda faoliyat yurituvchi yakka tartibdagi tadbirkorlar, jismoniy shaxslar (shu jumladan o'zini o'zi band qilgan shaxslar);

6) *Garov/ipoteka* – majburiyatlarning bajarilishini ta'minlash maqsadida bir shaxs tomonidan boshqa shaxsga mol-mulkni yoki unga bo'lgan huquqni berish;

7) *Garovga qo'yuvchi* – o'z mol-mulkini Qarz oluvchining kreditlar bo'yicha majburiyatlari bajarilishining ta'minoti sifatida taqdim etuvchi hamda garovga qo'yilgan mol-mulkni garovdan chiqarish, shu jumladan garov predmetini almashtirish to'g'risidagi arizalar bilan Bankka murojaat qilish huquqiga ega bo'lgan shaxs;

8) *Kredit* - Bankning quyidagi shakllarda taqdim etiladigan kredit mahsuloti: ishonchli kredit, mikroqarz, iste'mol krediti, avtokredit, ipoteka krediti yoki boshqa kredit/qarz, shu jumladan jismoniy shaxslarga beriladigan onlayn kredit. Bu Bank tomonidan jismoniy shaxsga tadbirkorlik faoliyati bilan bog'liq bo'lmagan maqsadlar uchun berilgan pul mablag'lari bo'lib, ular muddatlilik, to'lovlilik, qaytarilishlik shartlari asosida, alohida hollarda esa maqsadli foydalanish, ta'minlanganlik (yoki ta'minlanmaganligi) bilan, O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi va Bankning ichki qoidalari talablariga muvofiq taqdim etiladi. Bunda Bank mijozga kredit taqdim etishda kredit xatarlarini o'z zimmasiga oladi;

9) *Kredit shartnomasi* - Bank va Mijoz o'rtasida shartnomada belgilangan shartlar asosida kredit berish bo'yicha tuzilgan shartnoma bo'lib, u Ommaviy oferta shaklida ham rasmiylashtirilishi mumkin;

10) *Arizachi* - Garovga qo'yuvchi yoki Qarz oluvchi;

11) *Likvidlik* - aktivning minimal pul yo'qotishlari bilan tezda sotilish qobiliyati;

12) *Baholash/qayta baholash* - obyekt qiymatini mustaqil baholovchi tashkilotlar tomonidan O'zbekiston Respublikasining baholash faoliyati to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq, shuningdek Bank xizmatlari tomonidan O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari va Bankning ichki qoidalariga muvofiq aniqlash;

13) *Garov predmeti* - garovga qo'yuvchi garovga oluvchiga majburiyat bajarilishini ta'minlash sifatida beradigan har qanday mol-mulk yoki mulkiy huquqlar, bundan muomaladan chiqarilgan narsalar, kreditorning shaxsi bilan chambarchas bog'liq bo'lgan talablar, xususan, aliment to'lash, hayot yoki sog'liqqa yetkazilgan zararni qoplash to'g'risidagi talablar hamda qonun hujjatlariga ko'ra boshqa shaxsga o'tkazilishi taqiqlangan boshqa huquqlar mustasno;

14) *Kafil* - qarz oluvchining o'z majburiyatini to'liq yoki qisman bajarishi uchun Bank oldida javobgarlikni zimmasiga olgan yuridik yoki jismoniy shaxs yoxud yuridik shaxs maqomiga ega bo'lmagan jismoniy shaxs;

15) *Garovlar reestri* - qarzdorlar tomonidan majburiyatlar bajarilishini ta'minlash uchun berilgan mol-mulkka nisbatan kreditorlarning huquqlari haqidagi ma'lumotlarni, shuningdek qarzdorning mol-mulkni tasarruf etish va undan foydalanish huquqlarining qonun hujjatlariga muvofiq cheklanishi to'g'risidagi yozuvlarni hamda ta'minot bilan bog'liq boshqa talablarni o'z ichiga olgan yagona axborot bazasi;

16) *Garov maqsadlaridagi qiymat* - qarz oluvchi to'lovga qodir bo'lmagan taqdirda kreditor ushbu aktivni bozorda sotishdan olishni umid qilayotgan, kreditni ta'minlovchi aktivning qiymati;

17) *Bankning vakolatli organi* - Bankning doimiy faoliyat yurituvchi kollegial organi bo'lib, ushbu organlarning faoliyati to'g'risidagi tegishli nizomlarda belgilangan vakolatlar doirasida qarorlar qabul qiladi (Bank Kuzatuv kengashi, Bank Boshqaruvi, Bank Bosh ofisining Kredit qo'mitasi, Biznes maqsadlari uchun kreditlash bo'yicha Kredit qo'mitasi, Filiallar tarmog'ining Kredit qo'mitasi, Chakana kredit qo'mitasi).

18) *Kredit menejeri* - Korporativ biznes departamenti, Kichik va o'rta biznes departamenti yoki boshqa vakolatli bo'linmalarining xodimi bo'lib, u Qoidalar va lavozim yo'riqnomalarida ko'zda tutilgan funksiyalarni, shu jumladan kreditlash jarayonini hujjatli qo'llab-quvvatlashni amalga oshiradi.

3-bob. Garovga qo'yilgan ta'minotni bosqichma-bosqich chiqarish tamoyillari

5. Agar kredit (moliyaviy vositalar) qaytarilishining ta'minoti sifatida bir nechta garov predmeti taqdim etilgan bo'lsa, quyidagi hollarda Bank bir yoki bir nechta garov predmetlarini garovga qo'yish to'g'risidagi shartnomani (shartnomalarni) qarzdor majburiyatlari miqdoridan oshadigan qismida bekor qilish (o'zgartirish) choralarini ko'rishi mumkin: qarzdor moliyalashtirish shartnomasi bo'yicha o'z majburiyatlarini lozim darajada bajargan bo'lsa; qarz oluvchi/garovga qo'yuvchi garov ta'minotini kamaytirish talabi bilan yozma murojaat qilgan paytda Bank xizmatlari tomonidan (Bankning ichki qoidalariga muvofiq pasaytiruvchi koeffitsiyentni hisobga olgan holda) aniqlangan garov predmetlarining garov qiymati qarz oluvchi majburiyatlarining bajarilmagan qismi miqdoridan oshgan bo'lsa.

6. Bank garov mulkini ta'minot tarkibidan uning likvidligiga (avvalo kamroq likvid bo'lganini) va obyektning daromadlilik darajasiga (avvalo kam daromad keltiradigan) asoslangan tartibda chiqaradi, bunda qaysi ta'minotni chiqarish maqsadga muvofiqligini Bankning Vakolatli organi belgilaydi.

7. Ishlab chiqarish/mulkiy majmua/korxonaning ajralmas qismi bo'lgan, mol-mulkdan yaxlit foydalanish uchun zarur bo'lgan, shu jumladan yagona texnologik jarayonni tashkil etuvchi quyidagi kabi mol-mulkning bir qismi garovdan chiqarilishi mumkin emas:

- don qabul qilish korxonasining mulki (ko'chmas mulk va jihozlar);
- avtomobillarga yoqilg'i quyish shoxobchalari va neft omborlari (ko'chmas mulk va uskunalari);
- qishloq xo'jaligi korxonasi: elevator, qishloq xo'jaligi texnikasi va unga tutash yerlar (odatda, vaqtinchalik yerdan foydalanish huquqi asosida);
- ishlab chiqarish yoki sanoat maqsadidagi mulkiy majmualar, shu jumladan zavodlar/fabrikalar va boshqa ishlab chiqarish obyektlari (tegishli ishlab chiqarish uskunalari o'rnatilgan ko'chmas mulk).

8. Qarz oluvchi/garovga qo'yuvchining garov ta'minotini kamaytirish/almashtirish to'g'risidagi yozma murojaatini ko'rib chiqishda, agar Bankning Vakolatli organi qarorida boshqacha tartib belgilanmagan bo'lsa, quyidagi talablarga rioya qilish lozim:

- Bank tomonidan qarz oluvchi/garovga qo'yuvchining Bankka murojaati ko'rib chiqilayotgan sanada muddati o'tgan qarzдорlik mavjud bo'lmashligi;

- qarz oluvchi yoki garovga qo'yuvchi tomonidan kelajakda bajarilishi lozim bo'lgan har qanday bajarilmagan va muddati uzaytirilgan majburiyatlarning yo'qligi, shu jumladan imtiyozli to'lov muddatlari belgilangan majburiyatlar va/yoki alohida shartlar sifatida ko'rsatilgan majburiyatlar (masalan, huquqni belgilovchi hujjatlarni rasmiylashtirish bo'yicha kechiktirish, qolgan garovlar yuzasidan yuridik e'tirozlarni bartaraf etish yoki ta'minot taqdim etish) mavjud emasligi. Shuningdek, Bankda qarz oluvchi yoki garovga qo'yuvchining talabiga ko'ra garov predmeti chiqarib olingandan so'ng qolgan garov predmetiga tegishli tarzda rasmiylashtirilgan huquqni belgilovchi, identifikatsiyalovchi va boshqa hujjatlarning mavjudligi;

- kreditlash dasturi talablariga muvofiq loyiha bo'yicha dastlab belgilangan ta'minot tuzilmasi, qarz oluvchi yoki garovga qo'yuvchining tegishli kreditlash dasturi doirasida qabul qilingan garov predmetini bo'shatish to'g'risidagi talabi bajarilgandan so'ng yomonlashmasligi;

- garov predmeti chiqarib olingandan keyin qolgan mol-mulkning Bankning ichki qoidalariga muvofiq ta'minotga qo'yiladigan talablarga mos kelishi.

4-bob. Kredit ta'minotini qisman ozod qilish tartibi

9. Kredit shartnomasi tuzilgandan va kredit berilgandan so'ng, kredit shartnomasining ayrim shartlari Bank yoki Qarz oluvchining tashabbusi bilan qayta ko'rib chiqilishi va o'zgartirilishi mumkin. Kredit shartnomalariga kiritilgan barcha o'zgartirish va qo'shimchalar yozma shaklda rasmiylashtirilgandan so'ng kuchga kiradi.

10. Kredit ta'minoti tarkibidagi garovlar qisman ozod qilinganda yoki garov predmeti almashtirilganda, qarzдорning murojaati Bankning Kredit siyosati va ushbu Tartibga muvofiqligi yuzasidan tegishli tarkibiy bo'linmalar tomonidan dastlab ko'rib chiqilishi lozim.

11. Agar ta'minot tarkibidan mol-mulkni qisman ozod qilish yoki garov predmetini almashtirish bo'yicha murojaat Bankning Kredit siyosatiga va ushbu Tartibga zid bo'lmasa, Ariza beruvchiga xizmat ko'rsatuvchi kredit menejeri suhbat o'tkazadi. Suhbat natijalariga ko'ra belgilangan tartibda ariza rasmiylashtiriladi (ariza suhbat o'tkazilgan sana bilan ro'yxatdan o'tkaziladi).

12. Hujjatlarning to'liq to'plami taqdim etilganda, arizani ko'rib chiqish muddati ariza Bankda ro'yxatga olingan kundan boshlab 15 ish kunini tashkil etadi.

13. Murojaat mazmunidan kelib chiqib, Murojaat etuvchiga taqdim etilishi lozim bo'lgan hujjatlar ro'yxati beriladi.

14. Ariza ro'yxatdan o'tkazilib, hujjatlarning to'liq to'plami olingach, kredit menejeri quyidagilarni amalga oshiradi:

- Qarz oluvchi tomonidan majburiyatlarning bajarilishini tekshiradi;

- qolgan va/yoki yangi garovning taxminiy qiymatini hisobga olgan holda qarz qoldig'ini ta'minot bilan qoplash darajasini hisoblaydi (garov va baholash departamentining amaldagi xulosasi mavjud bo'lsa);

- Bankning ichki qoidalarida belgilangan tartibda Bankning vakolatli organi ko'rib chiqishi uchun xulosa va hujjatlar to'plamini tayyorlaydi.

15. Kredit shartnomasi shartlariga garovdan ozod qilish yoki almashtirish bo'yicha o'zgartirishlar kiritish Bankning Vakolatli organining ijobiy qarori asosida, Kredit va Garov siyosatlari, kredit mahsulotlari pasportlari, alohida Kreditlash dasturlari hamda Bankning ichki qoidalarida belgilangan limitlar va cheklovlar doirasida amalga oshiriladi. Ko'rib chiqish natijalariga ko'ra, ariza beruvchiga qaror qabul qilingan kundan boshlab 3 bank kuni ichida qabul qilingan qaror haqida xabarnoma yuboriladi.

16. Bankning Vakolatli organi ijobiy qaror qabul qilganda, Bankning tarkibiy bo'linmalari Bank operatsiyalarini boshqarish departamentiga quyidagi hujjatlar to'plamini o'z vaqtida taqdim etadi: Ariza beruvchining arizasi, Bankning Vakolatli organining garovni ozod qilish to'g'risidagi qarori va

Bankning ichki qoidalariga muvofiq boshqa hujjatlar. Bu hujjatlar Bank mijozining kredit yig'majildiga o'z vaqtida qo'shilishi va garov ta'minotini bosqichma-bosqich ozod qilish uchun zarur.

17. Bankning Bank operatsiyalarini boshqarish departamenti Yuridik departament bilan hamkorlikda belgilangan tartibda kredit shartnomasiga qo'shimcha kelishuv, tegishli garov shartnomalari va boshqa hujjatlarni rasmiylashtiradi. Yangi garov predmetini qabul qilish va uni rasmiylashtirish Bankning ichki qoidalar va kredit mahsulotlari pasportlariga muvofiq amalga oshiriladi.

18. Bank quyidagi holatlardan hech bo'lmaganda bittasi mavjud bo'lganda garov predmetini ozod qilishni yoki almashtirishni rad etishga haqli:

- kredit shartnomalari bo'yicha muddati o'tgan qarzdorlik va/yoki majburiyatlarning boshqacha tarzda buzilishi mavjudligi;

- Qarz oluvchining moliyaviy ahvoli yomonlashuvi;

- qolgan yoki taklif etilayotgan ta'minotning qiymati yoki likvidligi yetarli emasligi;

- mol-mulkni garovga qo'yishga to'sqinlik qiluvchi yuklamalar yoki boshqa cheklovlarning mavjudligi;

- taklif etilayotgan garov turi almashtirilayotgan predmet turiga mos kelmasligi (agar bunday moslik mahsulot/dastur shartlari bilan talab etilsa);

- garov huquqlarini amalga oshirishda kelajakda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan cheklovlar haqidagi asosli ma'lumotlar (shu jumladan qonunchilikdagi o'zgarishlar, rejalashtirilayotgan aylanma cheklovlari, uchinchi shaxslarning da'volari va boshqalar);

- vakolatli organlar tomonidan xatlov yoki boshqa cheklovlar qo'yilishi;

- O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi bilan roziligi talab etiladigan hamqarz oluvchilar yoki uchinchi shaxslarning roziligi yo'qligi;

- taklif etilayotgan mol-mulk yoki unga bo'lgan huquqlar bo'yicha sud nizolarining mavjudligi.

19. Garovga qo'yilgan mol-mulkni ozod qilishni, shu jumladan bosqichma-bosqich ozod qilishni yoki garov ta'minotini almashtirishni rad etish to'g'risida qaror qabul qilingan taqdirda, ariza beruvchiga rad etish sabablari asoslantirilgan holda yozma shaklda xabarnoma yuboriladi. Xabarnomada quyidagilar bo'lishi kerak:

- rad etish to'g'risida qaror qabul qilishga asos bo'lgan aniq holatlar;

- aniqlangan qoidabuzarliklar yoki kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha tavsiyalar (ularni bartaraf etish imkoniyati mavjud bo'lganda);

- rad etish sabablari bartaraf etilgandan so'ng ariza beruvchining qayta murojaat qilish huquqi haqidagi ma'lumot.

20. Bank garov ta'minotini qisman ozod qilish yoki almashtirish uchun vositachilik haqini undirish huquqiga ega.

5-bob. Yakuniy qoidalar

21. Mazkur Tartib "Tenge Bank" ATB Boshqaruvi tomonidan tasdiqlangan kundan boshlab kuchga kiradi.

22. Agar ushbu hujjatning ayrim qoidalar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi va/yoki Bank Ustaviga zid kelsa, bu qoidalar o'z kuchini yo'qotadi va ushbu qoidalar bilan tartibga solinadigan masalalarda, mazkur Tartibga tegishli o'zgartirishlar kiritilgunga qadar, O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi va/yoki Bank Ustavi qoidalariga amal qilish lozim.

23. Ushbu hujjatning asl nusxasini saqlash va nazorat nusxalarini taqdim etish Yuridik departamentning Uslubiyat boshqarmasi tomonidan amalga oshiriladi.

24. Ushbu hujjatni o'z kuchini yo'qotgan deb topish, unga o'zgartirishlar kiritish va boshqa harakatlar Bankning ichki qoidalariga muvofiq ushbu hujjatni ishlab chiquvchi tomonidan amalga oshiriladi.

Matn oxiri